
Maktabgacha ta'lim tashkilotida targ'ibot tadbirlari o'tkazildi

Bosh Qomusimizning kundalik hayotimizda ahamiyati, qadr-qimmatini yuqori. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Bu Konstitutsiyada ham o'z ahamiyatini topgan.

Farg'ona shahrida joylashgan 25-DMTTda yangilanayotgan konstitutsiyaga bag'ishlangan targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Unda "Zahiriddin Muhammad Bobur" mahalla fuqarolar yig'ini faollari, ta'lim muassasasi xodimlar va ota-onalar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berilayotgan e'tibor, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida fikr almashildi. Yangi Konstitutsiyada belgilanayotgan normalar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

2023-04-01 10:30:15